



CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Adilova Yulduz

Samarqand viloyati Payariq tumanni 70 – maktab o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14644162>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda xorijiy tillarni mukammal o'rgatish va o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy metodlar hamda ulardan keng foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, zamonaviy metodlar, o'yinlar

Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida o'zgarishlar va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ilm-fanga ayniqsa, chet tillarga e'tibor yanada kuchaydi. Har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanib o'rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning chet tillarni o'qitish va o'rganishga doir bir qator qarorlar qabul qilganlaridan so'ng yurtimizda yangicha muhit va davr boshlandi. Qarorga muvofiq zamonaviy darsliklar, metodlar va texnologiyalar ishlab chiqarildi. Hozirgi zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashlik etishga bo'lgan talab kundankunga o'sib boryapti.

Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha bo'lgan ana'naviy ta'limdan farqli ravishda zamonaviy metodlardan foydalanganda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, yetarli bilim olishi va tarbiyalanishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilayapti. Zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chet tillarini xususan, ingliz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari mavjud. Jumladan, dars jarayonida ingliz tilidagi video roliklar, dialoglar, kino yoki multfilmlarni ko'rsatish, ancha ana'naviy usul hisoblangan magnitofon va CD lardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tili o'rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda.

Masalan:

1."B-B-B"(bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o'quvchilarning matni tushinishini, uni tahlik qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.





2."Aqliy hujum"(Brainstorming)- g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o'quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3."Muammoli vaziyat yechimi"(Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o'quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4."Tezkor savol"(Quick answers) Bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5."Pantomima"(Pantomime)- turli xildagi so'zlarni imo-ishoralari orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib o'quvchilar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6."Hikoya zanjiri"(A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi.


7."Rasmlar so'zlaganda"(When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda , o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8."Kviz kartochkalar"(Quiz cards)- bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilarlar bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta'minlaydi, bu esa vaqtni ancha tejaydi.

9."Klaster" usuli. Klasterlarga ajratish o'quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo'shish uchun samarali usuldir.

10."Insert" metodi. Bunda o'quvchilarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va o'quvchilardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni , kuzatuvchanlikni va tushunishni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi.

Demak, yuqorida ko'rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarni o'rgatishda samarali usullari bor ekan. O'qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam






beradi. O'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi. Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivjlanayotgan davrda chet tillarini o'rgatishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni tez va samarali bo'lishiga olibkeladi.

Xususan, texnologik vositalar chet tili o'rganishning har bir ko'nikmalari (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ga qo'l keladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi o'z oldiga barkamol, yetuk va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, biz barcha bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy metodlar va texnologiyalarni o'rganib ulardan samarali foydalanangan holda yoshlarga chet tillarini mukammal o'rgatish orqali yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodova.U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy. 2006, 40 bet
3. Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", (o'quv qo'llanma). Toshkent, Sharq nashriyoti. 2003-yil
4. Ahrorovna, N. N. , & Marjona, M.. (2021). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. "ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 62-68. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/589>.
5. Негматова, Н. (2024, April). ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И ЕГО РЕАЛИЗАЦИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП). In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 383-386).
6. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.
7. Негматова, Н. Н. (2023). ПРИНЦИП УЧЕТА ОСОБЕННОСТЕЙ РОДНОГО ЯЗЫКА УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ПОЛИЭТНИЧЕСКОЙ СРЕДЕ, МЕТОДЫ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ. Issue 2 of 2023 (138/2), 2(131), 5-9.
8. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE





TERMS", " Philology Matters: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 11. DOI:
10.36078/987654486 Available at:

<https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>

9. Negmatova, N. (2023). RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH USULLARINING LINGVODIDAKTIK JIHATI VA UNI O'RGANISH YO'LLARI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(17), 11-14.

10. Umaraliyevich, B. F., & Begmurod o'g'li, O. E. (2024). Artificial Intelligence and Multimedia Technologies: Integration and Opportunities. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 2(5), 34-37.

11. Kobilova, N. S. (2018). BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 102-107). <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>

